

UBAYDIY HAYOTI VA ADABIY MEROSINING MANBALARDAGI TALQINI

Jamoliddin Abdullayev,

*O‘zJOKU O‘zbek tili va adabiyot kafedrası
katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. *O‘zbek adabiyoti tarixining muhim bir yillari shayboniylar davri bilan bog‘liq. Mumtoz adabiyotimiz o‘zining rang-barangligi va badiiy kamoloti bilan jahon madaniy boyligining muhim bir qismi bo‘lib, jumladan, turkiy xalqlar tarixiy taraqqiyoti davomida ko‘pgina iste‘dodli ijodkorlarni yetishtirib bergan. Shayboniy sultonlaridan Ubaydiy ham o‘sha el farzandi bo‘lib, ona tilidan tashqari arab va fors tillarida bemalol ijod qila oladigan iste‘dod sohiblaridan biri edi.*

Kalit so‘zlar: *Ijod, ijodkor, shaxsiyat, manbalar, tahlillar, talqinlar, o‘zigaxoslik.*

Abstract. *An important period in the history of Uzbek literature is associated with the era of the Shaybani dynasty. Our classical literature, with its diversity and artistic perfection, is an important part of the world's cultural wealth, including the historical development of the Turkic peoples, which has produced many talented creators. Among the Shaybani sultans, Ubaydi was also a child of that people and was one of the talented people who could freely create in Arabic and Persian in addition to their native language.*

Keywords: *Creativity, creator, personality, sources, analyses, interpretations, uniqueness.*

Аннотация. *Важный период в истории узбекской литературы связан с эпохой династии Шайбани. Наша классическая литература, с её многообразием и художественным совершенством, является важной частью мирового культурного богатства, включая историческое развитие тюркских народов, породившее множество талантливых творцов. Среди султанов Шайбани Ubaydi также был потомком этого народа и одним из талантливых людей, которые могли свободно творить на арабском и персидском языках в дополнение к своему родному.*

Ключевые слова: *Творчество, творец, личность, источники, анализ, интерпретации, уникальность.*

Kirish. XVI asr o‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li hamda bosqichlariga ega bo‘lgan boy davr bo‘ldi. Bu davrdagi ilg‘or va peshqadam qalamkashlar o‘zlarigacha mavjud bo‘lgan, birinchi navbatda Navoiy ijodiga xos an‘analarni davom ettirgan holda, zamon va davr ehtiyojlarini ham hisobga olib, xilma-xil shakldagi juda ko‘plab asarlarni ijod qilishga muyassar bo‘ldilar[1.10].

Adabiyotshunos M.Mirzaahmedova e‘tirof etganidek, “XVI asr madaniy hayotini ayrim tarixchilar tushkunlikka yuz tutgan davr deb talqin etadilar, ammo bu davr tarix asarlari, tazkiralarni sinchiklab o‘rganish natijasida yuqoridagi fikr bir muncha to‘g‘ri emasligi aniqlandi” [2.16].

Turkiston madaniy va adabiy hayoti tarixida sezilarli iz qoldirgan, XVI asrda yashab ijod etgan anashunday shoirlardan biri Ubaydiy edi. Uning to‘liq nomini tarixchilar Ubaydulloxon ibn Mahmud Sulton ibn Budog‘ Sulton ibn Abulxayrxon deb qayd etganlar[3.94]. Abulxayrxonning Budog‘ Sulton nomli o‘g‘li bo‘lib, undan ikki farzand dunyoga kelgan. Birinchisi – Muhammad Shayboniyxon, ikkinchisi esa Mahmudxon edi. Dashti qipchoqda tug‘ilgan Mahmudxon (h. 858- m. 1452) bobosi Abulxayrxon qo‘lida tarbiya topgan [4.45]. Keyinchalik u akasi Muhammad Shayboniyxon izidan

borib, toju taxt uchun olib borilgan bir qancha janglarda faol qatnashgan. Movarounnahr 1501 yil shayboniylar qo‘liga o‘tgach, unga Buxoroni boshqarish topshiriladi[4.46].

Adabiyotlar tahlili. Ubaydulloxon ana shu Sultonning farzandi bo‘lib, 1487 yilda (h. 892.) tavallud topgan. Tarixiy va ilmiy manbalarda uning tug‘ilishi va vafoti sanasi qayd qilingan holda, lekin tug‘ilgan joyi to‘g‘risida ma‘lumot juda kam. Biz bu masala bilan maxsus shug‘ullanib, Xorazm zaminida Ubaydiyning Vazir shahri yaqinidagi Yamani Tirsak mavzeida tug‘ilganligini aniqladik. Bu to‘g‘rida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondidagi qo‘lyozmalardan birida «Ubaydulloxon 892 h. (1486 -1487) sanada Vazir shahri etagidagi Yamani Tirsak mavzeida dunyoga keldi», – deb yozilgan. Bunga sabab esa Shayboniyxonning 880-900 h. yillarda Xorazmni egallash uchun qilgan harbiy yurishlari edi. Shu safarlarda uning ukasi Mahmud Sulton ham unga hamroh bo‘lgan. Bunday yurishlarda odatda shayboniy sultonlari bilan oila a‘zolari birga hamsafar bo‘lishgan.

Ubaydulloxon tavallud topganda, otasi Mahmud Sulton piri va ustodi Nosiriddin Ubaydulloh Xoja Ahrorga chaqaloqqa nom qo‘yib berishni iltimos qiladi. Xoja unga iltifot qilib, o‘z nomlarini (Ubaydulloh) bergan. Yolg‘iz farzand Ubaydulloxonning yoshlik yillari ko‘proq Buxoroda o‘tgan. U boshiga qiyinchilik va tashvishlar tushgan chog‘larning birida bu to‘g‘rida shunday deydi:

El, ko‘plukni ko‘zga nega ilgaysiz,

Yolg‘iz kishidin ham nega kesilgaysiz.

Yolg‘iz deb oni kesilgaysiz ondinkim,

Yolg‘izning erur yori Xudo, bilgaysiz [5.529]

Bu to‘rtlikda uning yolg‘iz farzand bo‘lganligiga ishorat bor. Shuning uchun ham yolg‘iz farzand tarbiyasiga Mahmud Sulton alohida e‘tibor beradi. U o‘z davrining eng yetuk piru olimlaridan ta‘lim va tarbiya olib o‘sada, arab va fors tillarini, she‘r yozish darajasida, mukammal o‘zlashtirgan.

Tadqiqot metadologiyasi. Ubaydiy haqida Mirzo Haydar o‘zining «Tarixi Rashidiy» asarida uning ilm-fanda yetishgan kamolotini ta‘riflab shunday degan edi: «U yoshligidan barcha fazilatlar bilan bezangan. Shu bois ham u 7 xil husni xatda qalam yuritar, ayniqsa, nasx xatini hammadan yaxshi yozardi. «Kalomulloh»dan bir nusxa ko‘chirib, Haramayni Sharifayn (Makka va Madina)ga jo‘natgan edi. Musiqa ilmida va ashulada mohir edi». [3.159] Shunga yaqin yoki o‘xshash fikrlar boshqa tarixiy, ilmiy adabiyotlarda ham mavjuddirki, bular Ubaydiyning ilm-fan va ma‘naviyatda katta yutuqlarga erisha olganligidan guvohlik beradi. Masalan, «Baxr ul-asror» da «xoni saodat nishon» Ubaydullaxon fanning bir qancha tarmoqlarida hayratlanarli natijalarga sohib bo‘lganligi ta‘kidlangan.[6.132] «Nafois ul-maosir» da esa quyidagilarni o‘qiymiz: «Ilmi hadisda Ubaydullaxon hazrati Xoja Mulloyi Isfahoniyning shogirdidir va fiqhda Mavlono Mahmud Azizonning shogirdikim, Movarounnahrda ulamolarning mashhurlaridan turur. Ilmi qirotatni Mavlono

Yormuhammad Qorining xizmatlarida o‘tkazgan. Ul fanda (*Tajvid ilmi - J.A.*) bir ta’lif ko‘rgizdikim, tamomi qorilarning tilini xatodin saqlar erdi. Muammoni yaxshi bilur erdi». [7.104]

U 1504 yilda katta amakisi Suyunchakxon Sultonning qiziga uylanadi. Shu yilning oxirlarida esa uning otasi Mahmud Sulton, noma’lum sabablarga ko‘ra, Qunduzga hokim etib tayinlanadi va o‘sha joyda vafot etadi. Shayboniyxon yolg‘iz ukasining jasadini Samarqandga keltirib dafn etgach, 18 yoshli merosxo‘r o‘g‘li Ubaydulloxonni Buxoro taxtiga hukmdor etib tayinlaydi. Uning taxtga chiqishiga ko‘pchilik ilm-fan va adabiyot namoyandalari katta umid va xursandchilik bilan qarashdiki, buni o‘sha davr tarixchisi Mir Muhammad Munshiyning shu voqea munosabati bilan yozgan tarixidan ham ilg‘ash qiyin emas:

Abulg‘ozi Ubaydullo Bahodirxoni dinparvar,

Bihamdulloh-ki, shud joyash farozi masnadi xoni.

Mu‘ini dini Payg‘ambar shudu gardid ta’rixash,

“Mu‘iniddin Ubaydullo ibn Mahmud Shayboniy”. [7.219]

«Tarixi Rashidiy» asari muallifi Mirzo Haydar Ubaydulloxonning taxtda o‘tirgan zamonini quyidagicha ta’riflaydi: «U (Ubaydulloxon) hamma yaxshi xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan podshoh erdi... U xizmat qilib turgan Buxoro xalqining yaxshi va fozilligi, farovonligi jihatidan Hirotni va Husayn Mirzo zamonini eslatadi». [3.110]

Tahlillar va natijalar. Ubaydulloxon Buxoro taxtida o‘tirgan yili Shayboniyxon Xorazmga yurish boshlaydi. U ham amakisining yonida ishtirok etib, Xorazmni egallash uchun olib borilgan jangda jasur, tadbirkor va mohir sarkarda sifatida ham taniladi.

Umuman, Ubaydulloxonning kuchli harbiy salohiyatga ega, shijoatli sarkarda ekanligi tarixiy kitoblarda maxsus qayd etilgan. «Tarixi Muqimxoniy»da u «Adolat shevasida yagona, jang jabhasida bag‘oyat farzona edi» – deyilgan. «Tarixi Shayboniyxoniy», «Tarixi Rashidiy», «Tarixi Roqimiy», «Zubdat ul-asror» singari asarlarda ifodalangan bir qancha harbiy voqealar bu bahoning haqqoniy ekanligini ko‘rsatadi. [8.110]

Aytish mumkinki, Ubaydulloxon amakisi bilan faqat harbiy yurishlarda emas, balki Shayboniyxon o‘tkazgan ilmiy, adabiy yig‘ilishlarda ham birga bo‘lib, undan o‘rnak olishga intilgan. Shu sababli ham u «davrlar sultonlari ichida fazilat va kamolotda yagona»ligi goh-goh Shayboniyxonning nomi bilan bog‘liq tarzda tilga olinadi.

Bu davrdagi eng katga siyosiy va harbiy to‘qnashuvlar safaviylar va shayboniylar o‘rtasida ham yuz berib, 1510 yili Shayboniyxonning Marv yaqinidagi jangda halok bo‘lgani buning yorqin bir dalilidir.

Safaviy qo‘shinlari Xuroson va Movarounnahrda hujum qilib, xalqni ko‘p qiyratgan, talagan va vayrongarchiliklarga yo‘l qo‘ygan edi. Bunday harakatlarda

ularning lashkarboshisi Najmi Soniy o'zini g'oyat salbiy tomondan ko'rsatgan. U, masalan, Bobur bilan hamkorlikda Qarshiga xujum qilganda, qal'ani qulatish bilan birga, bu yerda yalpi qatliom o'tkazgan. Maqtullar orasida iste'dodli fors-tojik shoiri Kamoliddin Binoiy (1453-1512) ham bo'lgan edi. [1.13]

Hamma davrlar kabi, bu davr ham o'z murakkabliklariga ega bo'lib, temuriylar va shayboniylar orasidagi munosabatlar silsilasida, xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur va Ubaydullaxon masalasi diqqatni o'ziga tortadi. Chunki bu davr siyosiy hayotida Ubaydullaxon ham Boburdan kam rol o'ynamagan. 1513 yil bahorda Ko'li Malikdagi (*Buxoro yaqinidagi joy nomi – J.A*) jangda esa Ubaydullaxon askarlarining soni ancha kam bo'lgani holda 40 ming qo'shinga ega Boburni yenggan. [9]

G'ijduvon qal'asi uchun bo'lgan jangda Najmi Soniy va uning yaqinlari yengiladilar. Ba'zi manbalarda Bayrambek va Najmi Soniy shu urushda o'ldirilgan deyilsa, Jaloliddin Mirzo Xojarning «Nomai Xisravon» kitobida bu haqda boshqacha ma'lumot berilgan. Najmi Soniy shu jangda qo'lga tushgach, uni Ubaydulloxon huzuriga olib kelishgan. Ubaydulloxon undan: «Sen qizilboshlar sipohining sardorimisan?» deb so'raganda, Najmi Soniy «Ha» deb javob bergan. Ubaydulloxon uning Najmi Soniy, ya'ni «Ikkinchi yulduz» degan laqabiga ishora qilib (asli nomi Mir Yor Ahmad): «Jangda yongan yulduzmisan yo oftob?» – deb so'ragan. Najmi Soniy: «Shunday kunga tushib, hayot gulzoridan qo'l yuvishimni bilganimda, hargiz sardorlik nomini o'zimga olmas va shunday qora kunga tushmas erdim», – deb javob bergan. Ubaydulloxon yana undan : «Ahdu paymonni buzib, Hisor xalqini talading, Qarshini kuch bilan olib, xalqini qirding. Qur'on va hadislarda, g'alaba qilgach, gunohkorlarni avf etmoq kerak, deyilgan. Sen hech Qur'on o'qiganmisan yoki gumroh qabilangdan eshitganmisan?» – deb so'raganda, Najmi Soniy: «Men arabchani bilmayman. Nima qilgan bo'lsam, podsho uchun qilganman!» – deb javob bergan. Shunda Ubaydulloxon atrofdagilarga qarab: «Eron shohining bilimsizligi bizga ma'lum bo'ldi. Bir ahmoqni lashkarboshi qilib, begona yurtga yuboribdiki, uning na ilmdan va na insofu diyonatdan xabari bor», – degan. So'ng uni o'ldirishga farmon bergan. Ammo, Najmi Soniy unga (Ubaydulloxonga) yalinib: «Ko'z yoshimni ko'rib, kechir. Jarima uchun mendan 50 ming ashrafiy ol! So'ng qo'yib yuborin, podshohimizdan hech qachon Turkistonga kelmaslikka so'z olib beraman», – deb yolvorgan. Ubaydulloxon esa: «Sendan na oltin olamanu, na o'sha yomon podshohingdan so'z. Sendek sitampesha va egri fikrni yer yuzida tirik qoldirmoq elga sitamni ravo ko'rmoq demakdir», – deb qatl etilishiga ishora qilgan. [10]

Ubaydulloxonning adolatu saxovati, birinchi navbatda, din ravnaqi, yurt obodligi, xalq farovonligi, ilm-fan, san'at, adabiyot rivojiga va shu soha kishilarining taqdiriga jiddiy e'tibor qilganligida edi. Shu ma'noda «Muzakkir ul-ashob»dagi ayrim dalillarga e'tiborni tortish maqsadga muvofiqdir. Unda yozilishicha, Mavlono

Surudiy Ubaydulloxonning voqeanavisi bo'lgan. U ayni paytda juda mohir xattot ham bo'lgan. Imoratlarga undan o'tkazib kitobalar bitadigan kishi bo'lmagan. Turkiy va forsiy tillarda ko'p yaxshi she'rlar bitgan. «Mansab taqozosiga ko'ra Xon (Ubaydulloxon - J.A.) huzuriga kirib turarkan. Buni ko'rolmagan ichiqoralar Xonga arz qilib, uni Xon haramiga yaqin joyga kirib chiqishi munosib emas, deyдилar. Shu sababli Mavlono ish yuzasidan Xon oldiga kirish paytida ko'p kutib qoladigan bo'libdi va bu she'ni yozib unga yetkazibdi. Ruboiy:

Xizmat qilayin deb kechalar qolurmen,

Xizmatda o'zimni ilgari solurmen.

Bu turfaki, mutob shogirdidek,

Turg'on sayin ollingda qiyin borurmen. [11.212]

Ana shu voqea va she'rdan so'ng Mavlono Surudiy Xonning huzuriga bemalol kiradigan bo'lgan ekan. Ubaydiy darveshta'b shoh va shoir bo'lganligi uchun «Sultonlar suhbat va xizmatiga ro'yxushlik» bermaydigan zuhd va tariqat ahllari ham unga e'tiqod qo'yganlar, ba'zi hollarda bu xalqning manfaati uchun ham foyda yetkazgan. Muzkur manbada bayon etilishicha, Muhammad Amin Zohid nomli «Zuhd maqomida nodiri zamon» bo'lgan bir olim sultonlardan faqat Ubaydullaxonga e'tiqod bog'lagan. Bir vaqt mazkur Xon davrida sarkorlar lashkar xarju xarajatlari uchun xalqdan molu jon bilan o'lpon ola boshlaganlar. Bu og'ir nomaqbul ishning oldini olish hech kimning qo'lidan kelmay qolgan. Shunda Mavlono Muhammad Amin Zohid Ubaydulloxonga arz qilib, deganki, «Bu buyruqda to'rtta nomunosib ish ro'y bergan, ya'ni amaldorlaringiz olinishi kerak bo'lgan kishidan olmayptilar va olinmasligi kerak kishilardan esa olayptilar, berilishi keragiga bermayptilar va bermaslik lozim bo'lganlarga berayptilar. Ana shundan so'ng Xon nohaq chiqarilgan (o'lpon) farmonini bekor qilgan ekan. Lekin Xonning ba'zi gumroh amaldorlari Muhammad Zohidga dushmanliklarini pinhona qila boshlagan, noiloj Shayx Xuroson tomon safarga chiqadi, ammo yo'lda Surxondaryo viloyatidagi Vaxshivor qishlog'ida vafot etadi.

Faxriy Hirotiy Ubaydulloxonni Hirotda ko'rib, uni «darvesh kiyimidagi shoh», deb aytgan ekan. Ubaydiyning o'zi ham bu xususda bir g'azalida

Darveshman o'z holima, ey banda Ubaydiy,

Yuz shukrki, hoqoni Kabodu Jom emasmen. [5.45]

Xulosa. Ubaydulloxonning zamondoshlari e'tirof etganidek adolat ila olib borgan siyosati, bebaho adabiy merosidagi ilohiy ishq, vatanga bo'lgan sadoqat, insoniylik, hikmat va jasurlik shartlari xususidagi o'g'itlari XVI asrda qanchalik muhim bo'lsa, ularning ahamiyati bugungi kun yosh avlodlar tarbiyasi uchun ham muhim sanaladi. Xulosa qilib aytganda, Ubaydulloxon hayoti va ijodini o'rganish, hikmatlaridagi o'g'itlardan kerakli xulosalar chiqarishimizga, ulkan saboqlar olishimizga sabab bo'ladi.

Zero kelajagimiz bunyodkorlari bo‘lmish yoshlarimizning eng go‘zal fazilatarni o‘zida mujassam etgan barkamol inson bo‘lib yetishuvida Ubaydiy asarlarining o‘rni alohidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev M. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. Toshkent; 2000, 10-bet.
2. Mirzaahmedova M. Xoja. Toshkent; Fan, 1975, 16-bet.
3. Mirzo Haydar. Tarixi Rashidiy. O‘zFA SHI qo‘lyozmasi, Inv. № 4538, 94-a varaq.
4. 4.Abdulloh ibn Muhammad Ali. Tarixi Shayboniyxon. O‘zFA SHI qo‘lyozmasi, Inv. № 1505, 45-b varaq
5. Ubaydiy devoni. O‘zFA SHI qo‘lyozmasi, inv. № 8931, 529-bet.
6. Muhammad ibn Vali. Baxrul asror. O‘zFA SHI qo‘lyozmasi, inv. № 1375, 132-b varaq.
7. Nafos ul-maosir. O‘zFA SHI qo‘lyozmasi inv. № 878, 104-b varaq.
8. Muhammad Yusuf Munshiy. Tarixi Muqimxoniy. O‘zFA SHI qo‘lyozmasi inv. № 7280, 110-a varaq.
9. O‘z FA SHI qo‘lyozma, inv. № 4538 95 “a”-“b”-varaq.
10. O‘z FA SHI. Inv. № 54/1. – B. 220.
11. Xasanxo‘ja Nisoriy. Muzakkiri Axbob. – Toshkent; 1993, 212-bet

